

**KONTINENTAL HUQUQ TIZIMI DAVLATLARIDA MUTANOSIBLIK PRINSIPINING QO'LLANISHI
(GERMANIYA VA FRANSIYA MISOLIDA)**

Tosheva Ozoda Karim qizi
TDYU 70420106 – Davlat boshqaruvi
huquqi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada kontinental huquq tizimining ikki yetakchi vakili — Germaniya va Fransiya — misolida mutanosiblik prinsipining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, qo'llanish metodologiyasi va sud amaliyotidagi o'rni qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Germaniyaning induktiv, empirik to'rt bosqichli yondashuvi (Verhältnismäßigkeit) va Fransiyaning deduktiv "Légicentrisme" an'anasiga asoslangan "Erreur manifeste" hamda "Bilan-coût-avantages" doktrinlari o'zaro taqqoslangan. Yevropa integratsiyasi jarayonida ikki tizimning konvergentsiyasi kuzatilgan va O'zbekiston huquq tizimi uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mutanosiblik prinsipi, kontinental huquq, Germaniya, Fransiya, to'rt bosqichli test, konvergentsiya.

Аннотация

В данной статье на примере двух ведущих представителей континентальной правовой системы — Германии и Франции — проведён сравнительно-правовой анализ конституционно-правовых основ принципа соразмерности, методологии его применения и роли в судебной практике. Индуктивный, эмпирический четырёхступенчатый подход Германии (Verhältnismäßigkeit) сопоставлен с дедуктивным подходом Франции, основанным на традиции «Légicentrisme» и доктринах «Erreur manifeste» и «Bilan-coût-avantages». Выявлена тенденция конвергенции двух систем в процессе европейской интеграции, а также выработаны практические предложения для правовой системы Узбекистана.

Ключевые слова: принцип соразмерности, континентальное право, Германия, Франция, четырёхступенчатый тест, конвергенция.

Abstract

This article presents a comparative legal analysis of the constitutional and legal foundations of the proportionality principle, its application methodology, and its role in judicial practice, based on the examples of two leading representatives of the continental legal system — Germany and France. The inductive, empirical four-step approach of Germany (Verhältnismäßigkeit) is compared with the deductive approach of France, grounded in the «Légicentrisme» tradition and the doctrines of «Erreur manifeste» and «Bilan-coût-avantages». The convergence tendency of the two systems in the process of European integration is identified, and practical recommendations for the legal system of Uzbekistan are developed.

Keywords: proportionality principle, continental law, Germany, France, four-step test, convergence.

KIRISH

Mutanosiblik (proportsionallik) prinsipi zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning eng fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, u davlat hokimiyati va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi universal mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Ushbu prinsip davlat cheklovchi chora ko'rganida, ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun vosita qanchalik zarur, yaroqli va oqilona ekanligini baholashni talab qiladi.

Aharon Barak ta'rifi ko'ra, mutanosiblik — bu “**maqsad va vosita o'rtasidagi oqilona nisbat**” bo'lib, u davlat hokimiyatini jilovlashning asosiy huquqiy quroli hisoblanadi [1].

Prinsipning dolzarbligi O'zbekiston uchun yangicha ahamiyat kasb etmoqda. 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi davlat organlarining insonga nisbatan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishini va ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishini belgilab qo'ydi [2]. Shu bilan birga, Oliy sud Plenumining 2023-yil 16-sonli qarorida sudlarga davlat organlari choralarda ushbu prinsipga rioya etilganligini tekshirish majburiyati yuklandi. Biroq amaliyotda mutanosiblikni o'lchash va baholashning metodologik tizimlari hali to'liq shakllanmagan. Aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida Germaniya va Fransiya tajribasi qiyosiy tahlil etiladi.

Mutanosiblik prinsipining zamonaviy ko'rinishi XIX asr oxiridagi Prussiya ma'muriy huquqidan kelib chiqqan. 1882-yildagi “Kreuzberg” ishida Prussiya Oliy Ma'muriy Sudi birinchi marta davlat chorasi faqat “ko'zlangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan darajada” bo'lishi kerakligini belgiladi [3]. Bu qaror mutanosiblikning “qonuniy maqsad” mezoniga asos qo'ydi. Keyinchalik Germaniya Federal Konstitutsiyaviy Sudi ushbu prinsipni 1958-yilgi “Apotheken-Urteil” qarorida konstitutsiyaviy daraja tamoyili sifatida tasdiqladi va to'rt bosqichli test metodologiyasini shakllantirdi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda **qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy, tizimli tahlil va sud pretsedentlarini o'rganish** metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy metod asosida Germaniya va Fransiyaning mutanosiblik prinsipini qo'llash tizimi bir-biri bilan taqqoslangan. Tarixiy metod yordamida prinsipning Prussiya huquqidan zamonaviy konstitutsiyaviy huquqqa qadar bo'lgan rivojlanish yo'li kuzatilgan. Tizimli tahlil orqali to'rt bosqichli testning strukturaviy elementlari ochib berilgan. Sud pretsedentlarini o'rganish metodi asosida esa Germaniya (Lüth, Lebach, Repository Copy) va Fransiya (Benjamin, Ville Nouvelle Est, burqa taqiqi ishi) bo'yicha yetakchi sud qarorlari tahlil qilingan.

Tadqiqotda birlamchi manbalar sifatida Germaniya Asosiy Qonuni, Fransiya Konstitutsiyasi, Federal Konstitutsiyaviy Sud qarorlari, Davlat Kengashi va Konstitutsiyaviy Kengash pretsedentlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tegishli normativ hujjatlar, ikkilamchi manbalar sifatida esa Aharon Barak, Robert Alexy, Jürgen Habermas kabi olimlarning ilmiy asarlari va xalqaro huquqiy tadqiqotlar asos qilib olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Germaniya huquqida mutanosiblik prinsipining shakllanishi “Huquqiy davlat” (Rechtsstaat) konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Vilgelm fon Humboldt 1792-yilgi asarida “davlat o'z fuqarolarini himoya qilish zaruriyatidan tashqari ularning erkinligini cheklamasligi kerak” degan tamoyilni ilgari surdi [4]. Ushbu poydevor 1794-yilgi Prussiya Umumiy davlat qonunlarida “zaruriy choralar” (die nöthigen Anstalten) sifatida rasmiylashtirildi, Federal Konstitutsiyaviy Sud (BVerfG) esa 1958-yilgi “Apotheken-Urteil” qarorida uni konstitutsiyaviy darajada tasdiqladi.

Zamonaviy Germaniya huquqida har qanday cheklovchi chora qat'iy to'rt bosqichli testdan o'tkaziladi [5]:

1. Qonuniy maqsad (Legitimer Zweck) — cheklovchi chora konstitutsiyaviy jihatdan asoslangan va ijtimoiy muhim maqsadga xizmat qilishi shart. Maqsad abstrakt yoki estetik emas, balki real huquqiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

2. Yaroqlilik (Geeignetheit) — tanlangan vosita ko'zlangan maqsadga erishish uchun mantiqan muvofiq bo'lishi, hech bo'lmaganda unga qisman xizmat qilishi kerak.

3. Zarurat (Erforderlichkeit) — maqsadga erishishning imkon qadar kam daxl qiluvchi muqobil yo'li mavjud bo'lmasligi talab etiladi. Agar kamroq cheklovchi vosita mavjud bo'lsa, u tanlangan bo'lishi shart edi.

4. Qat'iy muvozanatlash (Verhältnismäßigkeit im engeren Sinne / Abwägung) — chora natijasida olinadigan ijtimoiy foyda shaxs huquqiga yetkazilayotgan zarardan og'irroq bo'lishi lozim.

Ushbu bosqichlarning amaliy ko'rinishi mashhur sud ishlarida namoyon bo'ldi. "Lüth" ishida (1958) BVerfG so'z erkinligi va shaxs obro'sini Abwägung usulida taroziga qo'yib, birinchisiga ustunlik berdi. "Lebach" ishida (1973) matbuot erkinligi va mahkumning qayta ijtimoiylashuv huquqi baholandi; filmni ozodlikka chiqish arafasida efirga uzatish nomutanosib deb topildi [6]. "Repository Copy" ishida esa sud qonunni butunlay bekor qilmadi, balki "moliyaviy yukni taqsimlash" (financial burden-shifting) vositasi orqali muammoni hal etdi.

Fransiya huquq tizimi Jan-Jak Russoning "Umumiy iroda" (Volonté générale) g'oyasidan kelib chiqqan "qonun markazlashuvi" (Légicentrisme) — parlament suverenitetining mutlaqligi — tamoyiliga asoslanadi [8]. Bu an'ana saylanmagan sudyalari qonunni shubha ostiga olishiga asrlar davomida ishonchsizlik bilan qaralib kelinishiga olib keldi. Shu sababdan Fransiyada mutanosiblik to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yashirin doktrinalar orqali harakat qiladi.

Davlat Kengashi (Conseil d'État) "Erreur manifeste d'appréciation" (Ochiq baholash xatosi) doktrinasini yaratdi: qaror sog'lom aqlga zid ravishda yaqqol nomutanosib bo'lsa bekor qilinadi [9]. 1933-yilgi "Benjamin" ishida mer ommaviy yig'ilishni tartibsizlik xavfini bahona qilib butunlay taqiqladi; Davlat Kengashi politsiya kuchlarini jalb qilish yetarli bo'lganligini topib, taqiqni bekor qildi — "Erkinlik qoida, politsiya chorasi istisno" prinsipini mustahkamladi [10]. 1971-yilgi "Ville Nouvelle Est" ishi orqali "Bilan-coût-avantages" (Xarajat-foydalar balans) doktrinasini shakllandi: davlat loyihasining jamoat uchun foydasi mulkka zarar, moliyaviy xarajat va ijtimoiy noqulayliklar yig'indisidan oshib ketishi lozim [11]. 2010-yilgi "Burqa taqiqi" masalasida (Dec. 2010-613 DC) esa Konstitutsiyaviy Kengash qisqa, deduktiv sillogizm usulida taqiqni "manifestement disproportionné" deb topmasdan ma'qulladi.

Robert Aleksi (Robert Alexy)ning "Og'irlik formulasi" (Gewichtformel): to'qnashgan huquqlar intensivligi va vazniga ko'ra baholanadi, har ikkisi ham imkon qadar yuqori darajada ta'minlanishga intilish lozim [7]. **Jürgen Xabermas** esa bu yondashuvni tanqid qilib, huquqlarni matematik formulaga solish sudlarga "cheksiz ratsionallik illyuziyasini" beradi deb hisoblaydi. Amaliyotda Federal Konstitutsiyaviy Sud vertikal nizolarda kompensatsiya va "yumshoq" mexanizmlarga murojaat qiladi. Shunday qilib, Germaniyada sud o'zini faol "Balancer" sifatida biladi; har bir ish faktlari empirik tahlildan o'tkaziladi.

Fransiyada sudning vazifasi Lui Favoreu ta'biri bilan aytganda "yo'naltiruvchi chiptachi" (La théorie de l'aiguilleur) — qonun to'g'ri relsga tushganligini nazorat qilish, biroq siyosiy tanlovga aralashmaslikdir. Qarorlar nihoyatda qisqa va deduktiv tarzda yoziladi. Ikki tizim o'rtasida muhim umumiyliklar ham mavjud: ikkalasi ham davlat choralarining nomutanosib bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, "qonuniy maqsad" mezonini tan oladi va Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi standartlariga bo'ysunadi.

Yevropa integratsiyasi jarayonida konvergensiya kuzatilmoqda. YIHS o'zining "marjinal erkinlik" (Margin of appreciation) ta'limotini qo'llab, har qanday milliy tizimda qilingan daxlning "demokratik jamiyatda zaruriyligini" tekshiradi. "SAS v. France" (2014) ishida YIHS Fransiyaga burqa taqiqi masalasida "keng marjinal erkinlik" berdi, biroq "jamiyatda birga yashash" (le vivre ensemble) konsepsiyasini huquqiy asos sifatida qabul qildi [12]. Bugungi kunda Fransiya Davlat Kengashi ham "qonunning mumkin bo'lgan oqibatlarini" hisobga olish orqali Germaniya namunasiga yaqinlashmoqda; Germaniya esa "yumshoq" mexanizmlarga ko'proq murojaat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning 20-moddasi va Oliy sud Plenumining 2023-yil 16-sonli qarorida mustahkamlangan mutanosiblik prinsipini to'laqonli amaliyotga joriy etish uchun ushbu xorijiy tajribadan saboq olish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozircha milliy sud qarorlarida to'rt bosqichli test eksplitsit ko'rsatilmaydi, ma'muriy organlarning diskretion qarorlarini asoslash standarti esa hali shakllanmagan.

XULOSA

Germaniya va Fransiya misolida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mutanosiblik prinsipining amaliy qo'llanilishi har bir tizimning tarixiy-falsafiy an'alariga ko'ra farqlanadi: Germaniya to'liq induktiv to'rt bosqichli testni, Fransiya esa parlament irodasiga hurmat ko'rsatuvchi deduktiv yondashuvni qo'llaydi. Yevropa integratsiyasi bu ikki tizimni yagona metodologik konvergensiya yo'naltirmoqda. Ushbu tajribadan O'zbekiston uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Sud qarorlarida to'rt bosqichli testni eksplitsit ko'rsatish — qonuniy maqsad, yaroqlilik, zarurat va qat'iy muvozanatlash bosqichlarini alohida-alohida bayon etish "asoslantirish madaniyati"ni (culture of justification) shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Ma'muriy organlarga diskretion qarorlarini mutanosiblik testi asosida asoslash majburiyatini qonun darajasida belgilash — bu Germaniya modeli asosida ma'muriy o'zboshimchalikni cheklaydi va sud nazoratini samaralashtiradi.

3. Ekspropriatsiya va katta hajmdagi davlat loyihalarida "xarajat-foyda" tahlilini majburiy huquqiy mezon sifatida mustahkamlash — Fransiya modeli asosida iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarning mutanosib muvozanatini ta'minlaydi.

4. Konstitutsiyaviy sud va oliy sudlar uchun mutanosiblik metodologiyasi bo'yicha rasmiy ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda sudyalarning malakasini oshirish dasturlarini joriy etish.

Mutanosiblik prinsipi — nafaqat xorijiy huquqiy import, balki O'zbekiston milliy konstitutsiyaviyligini mustahkamlovchi va xalqaro hamjamiyat bilan "huquqiy tilda muloqot" qilishga imkon beruvchi universal qadriyatdir. Uni amaliyotga to'liq joriy etish huquqiy davlat qurish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barak A. Proportionality: Constitutional Rights and Their Limitations. — Cambridge: Cambridge University Press, 2012. — 611 p.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 20-modda (yangi tahrir). — T.: «O‘zbekiston», 2023.
3. Preussisches Oberverwaltungsgericht. Kreuzberg-Urteil. — 14. Juni 1882.
4. Gumboldt V. fon. Idei k opytu, opredelyayushchemu granitsy deyatelnosti gosudarstva // Yazyk i filosofiya kultury. — Moskva: Progress, 1985. — S. 25-142.
5. Alexy R. A Theory of Constitutional Rights. — New York: Oxford University Press, 2002. — 462 p.
6. BVerfGE 7, 198 — Lüth-Urteil (1958); BVerfGE 35, 202 — Lebach-Urteil (1973).
7. Alexy R. On Balancing and Subsumption: A Structural Comparison // Ratio Juris. — 2003. — Vol. 16(4). — P. 433-449.
8. Rousseau J.J. Du Contrat Social ou Principes du droit politique. — Amsterdam, 1762.
9. Engle E. The History of the General Principle of Proportionality // The Dartmouth Law Journal. — 2012. — Vol. X:1. — P. 1-11.
10. Conseil d’État. Décision Benjamin. — 19 mai 1933.
11. Conseil d’État. Décision Ville Nouvelle Est. — 28 mai 1971.
12. ECtHR. SAS v. France, Application No. 43835/11. — 1 July 2014.